



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2023- yil
yanvar-sentabr

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-sentabr)




Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi -
59,1%



Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi –
4 753,7
ming so'm




Xizmatlar
sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi – **61,8%**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- oktabr holatiga ko'ra)




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar



(yanvar-sentabr)



Soni, birlikda





Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari (1- sentabr holatiga ko'ra)



Soni, birlikda


Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-sentabr)



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-sentabr)

7 072,1




■ Hajmi, mlrd. so'mda

▲ O'sish sur'ati

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2023- yil yanvar-sentabr)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-sentabr)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Jizzax viloyati¹⁾	7 072,1	100,0	107,7
Jizzax sh.	2 984,1	42,2	110,0
tumanlar:			
Arnasoy	114,7	1,6	104,7
Baxmal	461,1	6,5	105,6
G'allaorol	577,4	8,2	107,8
Sharof Rashidov	948,4	13,4	104,8
Do'stlik	227,8	3,2	106,2
Zomin	563,2	8,0	106,8
Zarbdor	250,6	3,5	103,4
Zafarobod	123,4	1,8	103,2
Mirzacho'l	196,1	2,8	107,7
Paxtakor	261,9	3,7	116,9
Forish	313,0	4,4	104,3
Yangiobod	50,4	0,7	87,8


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) qiymat vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-sentabr)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-sentabr)




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-sentabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **59,1** foizni, shu jumladan, **20,2** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-sentabr)



■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-sentabr)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	7 072,1	100,0	107,7
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	350,8	5,0	119,3
Moliyaviy xizmatlar	1 944,5	27,5	110,7
Transport xizmatlari	1 008,9	14,3	103,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	970,0	13,7	100,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	232,5	3,3	104,4
Savdo xizmatlari	2 004,7	28,3	105,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	128,9	1,8	102,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	311,1	4,4	110,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	139,2	2,0	103,8
Ijara xizmatlari	110,6	1,6	74,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	174,3	2,5	103,4
Shaxsiy xizmatlar	202,4	2,8	102,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	92,1	1,3	105,1
Boshqa xizmatlar	372,1	5,2	135,6

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-sentabr)




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2023- yil yanvar-sentabr)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-sentabr)




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi **68,4** foizni yoki **1 330,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan Paxtakor tumanida yuqori o'sish sur'ati **131,0 %** ni tashkil etdi.

■ Hajmi, mlrd. so'mda ○ O'sishi

Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar-sentabr)


Transport xizmatlarining umumiy hajmi-da avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **96,1%**.

Sharof Rashidov tumanida transport xizmatlari hajmi **392,1** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hudud-da transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **102,8** % ni tashkil etgan.



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2023- yil yanvar-sentabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-sentabr)

2023- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **970,0** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,7 %** ni tashkil etdi



Jizzax viloyati ¹⁾

970,0

Sharof Rashidov

382,9

Jizzax shahri

161,2

Baxmal

91,1

Zomin

87,2

G'allaorol

75,0

Zarbdor

38,0

Forish

37,2

Do'stlik

28,3

Paxtakor

27,4

Mirzacho'l

17,3

Zafarobod

9,3

Yangiobod

7,8

Arnasoy

7,3

Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

+0,7% **Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari**

+0,0%

(2023- yil yanvar-sentabr)

-0,1%

+2,5%

+2,2%

+3,8%

+0,8%

-2,8%

+1,8%

+2,4%

-0,5%

-0,2%

-2,7%

+0,8%



2023- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **55,1 %**. Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yo'lovchilarni xizmatlarining ulushi **44,9** foizni tashkil etdi

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


2023- yilning yanvar-sentabr

oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **79,8** foizni tashkil etdi.



Savdo xizmatlari dinamikasi

(yanvar-sentabr)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2023- yil yanvar-sentabr)



Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi
Jizzax viloyati ¹⁾	2 004,7	+5,5%
Jizzax shahri	465,2	+5,6%
G'allaorol	276,2	+7,5%
Sharof Rashidov	217,7	+7,4%
Baxmal	209,3	+1,1%
Zomin	205,0	+4,5%
Paxtakor	121,5	+26,1%
Forish	115,7	+2,0%
Do'stlik	106,7	+6,8%
Zarbdor	98,2	+0,4%
Mirzacho'l	63,0	+1,2%
Zafarobod	52,0	-0,8%
Arnasoy	50,6	+0,3%
Yangiobod	23,6	-1,6%


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-sentabr)

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2023- yilning yanvar-sentabr** oylarida ularning ulushi **87,5** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-sentabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. soʻmda Oʻsishi

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-sentabr)




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yil yanvar-sentabr** oylaridagi ulushi **74,4 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2023- yil yanvar-sentabr)







Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr)

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi 66,4 foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-sentabr)






Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi

(yanvar-sentabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **96,5** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2023- yil yanvar-sentabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr)

2023- yilning yanvar-sentabr

oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq- ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlari ustunlik qildi – 88,2 foiz.



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2023- yil yanvar-sentabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar-sentabr)



■ Hajmi, mlrd. so'mda



O'sish sur'ati

Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2023- yil yanvar-sentabr, mlrd. so'mda)

Jizzax viloyati ¹⁾	110,6
Jizzax shahri	27,6
Sharof Rashidov	26,0
Zarbdor	10,1
Zomin	9,5
G'allaorol	9,4
Baxmal	9,1
Forish	6,4
Paxtakor	3,6
Do'stlik	3,1
Zafarobod	1,7
Yangiobod	1,5
Mirzacho'l	1,4
Arnasoy	1,2

2019- yilning yanvar-sentabrga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi 37,5 mlrd. so'mga oshib, 110,6 mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida 2023- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi 73,3 % ni tashkil etdi.




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi (yanvar-sentabr)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **20,8** foizini tashkil etadi.


Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2023- yil yanvar-sentabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda O'sish

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-sentabr, mln. so'mda)



2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi 27,6 mlrd. so'mga oshib, 92,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi 90,9 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 72-221-25-90

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.